



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA XO'JAYLI SHAHRINING SAVDO ALOQALARI

A.O'. Gulimbetov

Tayansh Doktorant

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi.
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Nukus shahri
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10394144>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2023

Accepted: 15th December 2023

Online: 16th December 2023

KEY WORDS

Xo'jayli, savdo, tadbirkorlik, baliqchilik, savdo aloqalar, Amudaryo, "Amudaryo bo'yidagi Venetsiya", A.Kun, paxtachilik, qayiqlar.

ABSTRACT

Qoraqalpoq xalqi va davlatchiligining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarida savdo-sotiqning o'рни alohida o'ringa ega. Quyi Amudaryo bo'yi xalqlarining savdo-iqtisodiy munosabatlarini o'rganish tarix ilmining muhim masalalaridan biridir.

Maqolada ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining eski shaharlaridan biri - Xo'jayli shahrida XIX asr oxiri XX asr boshlarida savdo-sotiq va tadbirkorlikning rivojlanishi, bozori, savdo-iqtisodiy aloqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Haqiqatdan Xo'jayli shahri qadimdan Quyi Amudaryo bo'yi xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo-sotiq sohalarida markazi bo'lib kelgan. Ma'lumki, Xo'jayli shahri savdo-iqtisodiy ahamiyati bilan birga Qoraqalpog'istonning siyosiy markazi sifatida ham tanilgan.

Qoraqalpog'istonda, shuning ichida Xo'jayli shahri hududi qadimdan malum bo'lganidek, savdo-sotiq rivojlanishi iqtisodiyotning, madaniyatning, ijtimoiy-siyosiy hayotning, umuman xalq xo'jaligining barcha sohalarini, xalqning turmush tarzini yaxshilashda, shuningdek aralashib yashayotgan va qo'shni xalqlar bilan o'rtasidagi aloqalarni, do'stlikni har tamonlama mahkamlab borishida katta ro'l o'ynagan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, ya'ni 1920-yilgacha Xo'jayli shahri Xiva xonligi tarkibida bo'lib Amudaryoning chap tamonidagi administrativ-savdo, hunarmandchilik va madaniy markaz bo'lib hisoblandi.[1]

Xo'jayli shahri qo'shni hududlar bilan savdo aloqalarida alohida o'ringa ega bo'ldi. Tashqariga terilar, ot, dehqonchilik mahsulotlari, baliq, va boshqa tovarlar chiqarilgan. Ular Nijniy Novgorod va Moskva yarmarkalariga yuborilgan. O'lkamiz shaharlarida tatar, arman, Xiva, Buxora va boshqa taraflardan kelgan savdogarlar savdo qilgan.

Xo'jaylida dehqonchilik va charvochilik mahsulotlari bilan savdo haftasiga ikki marta bo'ladigan bozorlarda o'tadigan edi. Amudaryoning chap tamonida Xo'jayli bozori eng qizg'in bozorlardan biri bo'libgina qolmay eng yirik savdo markazi ham edi. Bozorlarda qishloq-xo'jaligi mahsulotlari dehqonlar va charvolar qo'lidan o'tib, yirik savdogarlar qo'lida to'planib,



oxirida o'lkadan tashqariga chiqarilish oldidan katta-katta omborlarga yig'ilib, ulgurji savdo yo'li bilan jo'natilar edi. Qoraqalpog'istonning, shuning ichida Xo'jaylining iqtisodiyotining rivojlanishida transport aloqalari katta ahamiyatga ega ekanligi malum. Bu yo'nalishda Xo'jaylini boshqa shaharlar bilan bog'lab turgan Nukus-Xo'jayli-Qo'ng'iro't yo'llari asosiy ichki aloqa yo'llari bo'lib xizmat qildi.[2]

Ushbu davrdagi Xo'jaylining markaziy savdo bozori va qo'shni hududlar bilan bog'lovchi yo'llar bo'lganligi haqida akademik S.Kamalovning ilmiy ishlarida ham qimmatbaho ma'lumotlar beriladi. Uning yozishicha boshqa shaharlar bilan birga Xo'jayli shahrida ham katta baliq bozorining bo'lganligi aytiladi. Rus tadqiqotchilarining ma'lumotlariga qaraganda har yili qishda Amudaryoning suvi qotib qolgunga qadar Dawqoradan Charjawga 150-300 gacha baliq bilan to'ldirilgan qayiqlar yuborilar edi. Ularning ko'pchiligi sazan, laqqa va boshqa baliq turlari bo'lgan. Ayrim vaqtlari qishda tuya bilan Buxoraga ham baliqlar yuborilib turilgan.

Shuningdek Xo'jaylini Nukus bilan bog'lovchi Amudaryodagi o'tish joyida oldingi davrlardan otadan-bolaga o'tib kelayotgan qayiqchilar xizmat qilar edi. Ayniqsa saldov tortadigan qayiqchilarning mehnati og'ir bo'lgan. Xivada asirlikda bo'lgan kazak Ivan Letnikov 400 fud yukni Qo'ng'irotdan Xo'jayliga 5 kishi 6 sutkada saldov tortib olib kelganligini aytadi. Bu haqida Kaulbarsning mehnatlarida ham ma'lumotlar beriladi. Shuningdek Xo'jayli, Eski Urganch, Qo'ng'iro't va boshqa Xiva xonligidagi shaharlar bilan bog'lovchi karvon yo'llari bo'lgan. Xo'jaylining yirik savdo markazi bo'lganligi haqida birqancha olimlarning ham arxiv manbalarida ma'lumotlarning bor ekanligini S.Kamalov ko'rsatib beradi.[3]

Yozib qoldirilgan ma'lumotlarga qaraganda Xo'jaylining yonidan Amudaryo orqali nonni, yog'ochni, tuzni, karvon yuklarini o'tkazadi. Qayiqlar har xil, uzunligi 10 sajun, eni 2,5 sajun, bo'yiga 1,5, shunday qayiqlar bor uzunligi 12 dan oshib ketadi, bu qayiqlar 700 fud yuk ko'taradi. Bunday qayiqlarning 10 tuyani yuki bilan yoki 100 kishini daryodan o'tkazishga quvvati yetadi.[4]

O'lkamizni o'rganish uchun XIX asrning 70-yillarida tuzilgan Amudaryo ekspeditsiyasining a'zolari ham Xo'jayli bozori va undagi savdo turlari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Shularning qatorida xudojnik A.N.Karazin 1874-yilda Xo'jayliga kelib, uni «Amudaryo bo'yidagi Venetsiya» deb atagan, shahrimizning shu davrdagi ko'rinishini aks ettirgan grafik rasmini «Xo'jayli bozori» nomi bilan 1886-yili «Niva» jurnalida bosib chiqargan.

O'lkamizga kelgan A.Y.Rossikovaning 1902-yilgi maqolasi orqali Xo'jayli bozorining kata ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

Ustozimiz A.Qudiyarov Xo'jayli bozori haqida A.Y.Rossikovaning ma'lumotlarini keltirib o'tadi. Undagi ma'lumotlarga qaraganda, oldin Nukus bozorlarida kundalik hayotga zarur barcha narsani topish mumkin edi. Barcha kerakli narsalar haftada ikki marta bo'ladigan Xo'jayli bozorida olib kelinadi. Nukusliklar uchun bu vaqt eng jonli vaqt bo'lib hisoblanadi. Sababi bozor kunlari tong saharlab turib ulgurjanlar ko'prikdan o'tib kerakli narsalarni olishga shoshiladi. Kechikganlar esa bo'sh qoladi. Shuning bilan birga ilmiy ishlarida Xo'jayli shahri yonidagi karvonning harakati va Amudaryo bo'yidagi Venetsiya deb atalgan Xo'jayli shahri tarixiga tegishli rasmlar keltirilib o'tiladi.[5]



1908-yilda Xo'jayliga kata tarixchi olimlardan biri, akademik Samoylovich kelgani va shahar bozoridan ikki qo'lyozma kitob va ikki dona pichoq sotib olgani haqida ma'lumotlar bor. Atab aytganda Xo'jayli bozoridan Chingizxonning Xorazmni bosib olganligi haqida dostonni, Najmitdin Kubroning «Xorazm - noma» dostonini sotib olgan. U davrlarda Xorazmda Xo'jaylida ishlangan pichoqlar sifati va chiroyliligi bilan dong taratgan. Olisdan kelganlar Xo'jaylida ishlangan pichoqlarni izlab kelib oladigan bo'lgan.[6]

Amudaryo ekspeditsiyasining yana bir vakili A.Kun Xo'jayli haqida qimmatli ma'lumotlar bergani haqida ko'plab tarixchi olimlar bilan biga Xo'jayli tarixi bilan qiziquvchi insonlarning nashriyotlarda chiqargan ma'lumotlari orqali bilishimiz mumkun. Ularning orasida ustozimiz S.Saymanovning A.Kunning Orol bo'yi xalqlari haqida ma'lumotlarini keltirib, Xo'jayli shahridagi savdo haqida ham ushbu ilmiy maqolasida ko'rsatib o'tadi. Shu davrlarda A.Kunning yozishicha Xo'jayli va Qo'ng'irotdan har yili Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz shaharlariga 50 dan 200 gacha tuzlangan baliq to'ldirilgan qayiqlar yuborilib turgan.[7]

A.Kun Xiva xonligiga safari vaqtida xonlikning iqtisodiyoti, savdo yo'llari, shaharlari va boshqa ma'lumotlarni keltirgan. A.Kunning ma'lumotlariga qaraganda Xo'jayli shahridan Qo'ng'irotda suv yo'li orqali bir kunda borgan, quruqlikdagi yo'l orqali esa ushbu oraliqni o'tish uchun ikki kun ketgan. Yuborilib turilgan baliqlar tuzlangan bo'lib bir botmoni Xo'jaylida 30 tangadan sotilgan. Buxorada tuzlangan baliqlarni 60 tangadan sotgan. Demak Xo'jayli xalqi baliqchilikni kasb qilish bilan birga uni qo'shni hududlar bilan birga savdo qilishida asosiy mahsulotlardan biri sifatida foydalanganligini ko'ramiz.

Ushbu davrdagi eng yirik shaharlardan biri Xo'jayli shahri haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan G.Seydametovning ma'lumotlari bo'yicha Xo'jayli Qoraqalpog'iston shaharlari orasida alohida o'ringa ega bo'lib, Sharq va g'arb o'rtasidagi savdo chegarasida joylashgan.[8]

XX asr boshida Markaziy Osiyoning barcha hududlari singari Xiva xonligi tarkibidagi Xo'jayli atrofida paxtachilik rivojlanib, bu yerlarda paxtaning ekinzor maydoni kengayib uning unumdorligi oldingiga qaraganda ortib bordi.

XX asrning boshida paxta sotib olish ishlari bilan shug'ullangan «Katta Yaroslav manufakturasi», «Kraft», «Knopplar», va «Aka-uka Manuilovlar» firmalari, shuningdek paxtani yetkazib berish ishlari bilan shug'ullanuvchi «Sharq jamiyati», «Kavkaz va Merkurii», «Rossiya jamiyati» va «Nadejda kompaniyasi» singari savdo-sanoat birlashmalari va firmalari konsessiyalarga faol qatnashdi.[9]

O'tgan asr boshida savdo-sotiq kapitali konsessiyaga Amudaryoning o'ng tamonidan ko'p yer olgan. 1912-yili aka-uka Safaryanslarning savda uyi Xo'jayli bekligidan 2623 desyatina yerni ijaraga olgan. Qipchoqqa yaqin yerlarda, Xo'jaylida va boshqa yerlardan mahalliy boylar shu yillari 100 ming tanob yerni dehqonlardan tortib olgan.[10]

Qoraqalpog'istonning Rossiyaning xomashyo yetishtiruvchi hududiga aylanganligini quyidagi ko'rsatgichlardan ko'rishimiz mumkin. Xiva xonligi qo'l ostida va Amudaryo bo'limida yashovchi qoraqalpoq yerlaridan Rossiyaga 1908-yili 740 ming tsentner, 1909-yili 800 ming tsentner, 1910-yili 960 ming tsentner, 1911-yili 1090 ming tsentner paxta yuborildi.

XX asr boshida paxtachilik xo'jalikning ahamiyatli sohasiga aylanib, Qoraqalpog'istonning iqtisodiyotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Masalan, 1914-yili Sho'rxon uchastkasida paxta ekiladigan yerlar 28,3% tashkil etgan bo'lsa, Xiva xonligining Xo'jayli bekligida 39,8% tashkil etgan.[11] 1887-yildan 1896-yilgacha Xiva xonligidan



Rossiyaga har yili 178 ming fud paxta tolasi yuborildi. Bundan tashqari oziq-ovqat, baliq, qora mol terilari va boshqa qimmatbaho narsalar olib ketildi.

1880-yili Xiva xonligining yettita yirik savdogar boylari Rossiyaga 9900 fud g'alla, 1210 fud charvochilik mahsulotlari, 240 fud har xil hunarmandchilik buyumlarini olib ketdi. Xivada, Urganchda rus savdo-sanoat va transport firmalaridan «Nobel», «Moskva savdo-sanoat jamiyati», «Katta Yaroslav manufakturasi jamiyati», «Rossiya transport jamiyati», va yirik savdogarlardan Donovan, aka-uka Manuilovlar, Kraftlar, Sazonov, Novikov, Chernikov, aka-uka Nikiforovlar, aka-uka Safarovlar (Safaryans), Petrosov (Petrosyans), Sarkisov (Sarkisyans) va boshqalar tashqariga paxta chiqarish va chetdan tovar olib kelishni o'zining qo'llarida ushlab turdi. Shuningdek mahalliy savdogarlarning markaziy shaharlardan kelgan savdogarlar va ishbilarmonlar bilan aloqasi har tamonlama kuchayib bordi.

Natijada XX asrning boshida Xiva-Rossiya aloqalari oldingidan ham kuchaydi. Paxtachilik, baliqchilik, cjet elga chiqish, transport yo'llarini kengaytirishga, rivojlantirishga kreditlar berildi.[12]

Demak, yo'qorida ko'rib o'tgazganimizdek savdo ishining rivojlanishi bilan shu davrdagi taniqli ishbilarmonlarning paydo bo'lishiga qulaylik yasab bergan.

Bugungi kunda yurtimizning rivojlanishida o'zining boy tarixiy yo'liga ega savdo va tadbirkorlik sohasini ilmiy jihatdan o'rganish va shu bilan birga badiiy asarlar yaratish o'tmish tariximizni bilishdakatta ahamiyatga ega. Bu sohani o'rganishda yo'qorida ko'rib o'tganimizdek har bir shaharning o'rni katta. Sababi qadim davrdan har tamonlama qulay yerda joylashgan Xo'jayli shahri savdoning rivojlanishiga va shu orqali tadbirkorlikning yetilishib chiqishiga sharoit yaratib bergan edi.

Shuning uchun ham Xo'jaylidagi savdo aloqalari tarixini arxiv ma'lumotlari va soha mutaxassislarining yodga olishlari asosida tadqiq qilib, natijasini nashriyotda chiqarib borsak, tariximizni terang bilib borishga kata hissa qo'shgan bo'lamiz.

References:

1. Есбергенов Х. Некоторые данные к истории Миздахкана – Ходжейли.// Тезисы Докладов научно-практической конференции «Ходжейли – древнейший город республики Каракалпакстан» Ходжейли 1994, 23-бет.
2. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Н. 2003. 76-бет.
3. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. Т, 1968, 107, 111-бетлер; Мәмбетуллаев М., Туребеков М., Юсупов О. Қарақалпақстан тарийхы. Н, 2010, 194, 208-бетлер.
4. Беласаров Д. Хожели. Н. 2011, 124-бет.
5. Қудияров А.Р. Ўзбекистанда саўда қатнасықлари ҳәм исбилерменлик тарийхы. Н. 2010. 83, 85-бетлер.
6. Абдусалық Ҳайитбай. Хожели – Хожазли. Н, 1997, 35-бет; Абдусадик Ҳайитбой Аслим, АСЛим Хўжа эли. Н, 2005, 27-бет.
7. Сайманов С. А.Кун Арал бойы халықлары ҳаққында.// ӨзРИАҚҚБ ниң Хабаршысы, 2004, №7. 60-61-бетлер.



8. Сейдаметова Г. К историографии города Ходжейли.// Тезисы Республиканской научно-практической конференции «Наука Каракалпакстана: вчера, сегодня, завтра», посвященной 50-летию Каракалпакского отделения Академии наук Республике Узбекистан. Н. 2009.169-бетлер.
9. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Н. 2003. 102-103-бетлер.
10. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетшилигиниң тарийхынан. 45-бетлер.
11. Сарыбаев М. Политика царского самодержавия по превращению каракалпакии в хлопково-сырьевой придаток России// ӨРИАҚҚБниң «Хабаршысы» 2004, №3-4, 83-бет.
12. Раҳимов., Қурбонбоев И. Толалар тарихи. Н. 1998, 16-17-бетлер.